



UO'K:

**O'RTA MAKTAB O'QUVCHILARI JISMONIY TARBIYASINI BAHOLASH VA MONITORING JARAYONLARINI PEDAGOGIK TAHLIL QILISH****ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРОЦЕССОВ ОЦЕНКИ И МОНИТОРИНГА ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ УЧАЩИХСЯ СРЕДНЕЙ ШКОЛЫ****PEDAGOGICAL ANALYSIS OF THE ASSESSMENT AND MONITORING PROCESSES OF PHYSICAL EDUCATION IN SECONDARY SCHOOL STUDENTS****Akbarov Anvarjon Tojimatovich** 

Harbiy ta'lim fakulteti dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida umumta'lim maktablarida jismoniy tarbiya sohasini monitoring qilish va baholash masalalari tahlil qilingan. Mustaqillik yillaridan buyon jismoniy tarbiyani takomillashtirish, bolalarning jismoniy faolligini oshirish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish maqsadida qator davlat dasturlari, qaror va farmonlar qabul qilingan. Tadqiqotda maktablardagi moddiy-texnika bazasi, o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi va o'quvchilarning jismoniy salohiyatini baholash ko'rsatkichlari tizimli monitoring qilingan. Shuningdek, bolalarning turli turdagi harakat faolligi va ularning individual xohishlari asosida ta'lim metodikasini takomillashtirish zarurati ta'kidlangan. Maqolada ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari va pedagogik tajribalar asosida maktablardagi jismoniy tarbiya tizimini samarali tashkil etish, innovatsion pedagogik texnologiyalar joriy etish va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish yo'nalishlari ko'rsatilgan.

**Аннотация**

В данной статье проанализированы вопросы мониторинга и оценки физического воспитания в общеобразовательных школах Республики Узбекистан. С момента обретения независимости были приняты ряд государственных программ, постановлений и указов, направленных на совершенствование физического воспитания, повышение физической активности детей и формирование здорового образа жизни. В исследовании систематически проведен мониторинг материально-технической базы школ, профессиональной подготовки преподавателей и показателей физической подготовленности учащихся. Также подчеркнута необходимость совершенствования методики обучения с учетом разнообразной двигательной активности детей и их индивидуальных предпочтений. В статье представлены направления эффективной организации системы физического воспитания в школах, внедрения инновационных педагогических технологий и пропаганды здорового образа жизни на основе результатов научно-исследовательской работы и педагогического опыта.

**Abstract**

This article analyzes the issues of monitoring and assessing physical education in general education schools of the Republic of Uzbekistan. Since gaining independence, a number of state programs, decrees, and resolutions have been adopted to improve physical education, increase children's physical activity, and promote a healthy lifestyle. The study involved a systematic monitoring of the schools' material and technical base, teachers' professional training, and students' physical fitness indicators. The necessity of improving educational methodologies based on the diverse physical activities of children and their individual preferences is also emphasized. The article outlines directions for the effective organization of the physical education system in schools, the introduction of innovative pedagogical technologies, and the promotion of a healthy lifestyle, based on the results of scientific research and pedagogical experience.

**Kalit so'zlar:** jismoniy tarbiya, umumta'lim maktablari, monitoring, baholash, pedagogik tahlil, bolalarning jismoniy faolligi, sog'lom turmush tarzi, moddiy-texnika bazasi, innovatsion texnologiyalar.

**Ключевые слова:** физическое воспитание, общеобразовательные школы, мониторинг, оценка, педагогический анализ, физическая активность детей, здоровый образ жизни, материально-техническая база, инновационные технологии.

**Key words:** physical education, general education schools, monitoring, assessment, pedagogical analysis, children's physical activity, healthy lifestyle, material and technical base, innovative technologies.

**KIRISH**

## PEDAGOGIKA

O'zbekiston Respublikasining Mustaqilligi e'lon qilinganidan so'ng, ta'lim tizimida dolzarb muammolardan biri sifatida jismoniy tarbiya sohasida milliy davlat dasturlarini ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etish vazifasi belgilandi. Amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar asosan jismoniy tarbiyaning mazmuniy jihatlariga qaratilgan bo'lsa-da, hududiy xususiyatlar yetarli darajada hisobga olinmagan.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, xususan, o'rta umumta'lim maktablarida jismoniy tarbiya sohasini takomillashtirishga qaratilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonda mamlakatimiz Prezidenti tomonidan qabul qilingan so'nggi yillardagi farmon va qarorlar asosiy normativ-huquqiy tayanch vazifasini bajaradi.

Xususan, 2024-yil 15-noyabrdagi PQ-392-sonli "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi qarorida maktab yoshidagi bolalarning jismoniy faolligini oshirish, ularni muntazam jismoniy mashqlar bilan shug'ullanishga jalb etish hamda har bir ta'lim muassasasida so'g'lom turmush tarzini shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Mazkur qarorda jismoniy tarbiya faqat fan sifatida emas, balki hayot tarzi, sog'lom turmushning ajralmas qismi sifatida joriy etilishi maqsad qilingan [2].

Shuningdek, 2022-yil 12-apreldagi PF-87-sonli Prezident farmoni yoshlar o'rtasida ommaviy sportni rivojlantirish va maktab o'quvchilarida jismoniy faollik ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni belgilaydi. Mazkur hujjatlar orqali maktablarda jismoniy tarbiya fani samaradorligini oshirish, o'qituvchilarning kasbiy salohiyatini rivojlantirish hamda ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni joriy etish maqsad qilingan.

Shu bilan birga, yuqorida keltirilgan farmon va qarorlar ta'lim jarayonida jismoniy tarbiyani samarali tashkil etish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish hamda bolalarning jismoniy va ruhiy rivojlanishini ta'minlash uchun mustahkam normativ-huquqiy asos yaratgan. Bu esa o'z navbatida, ta'lim sifatini oshirish va mamlakatimiz yosh avlodini sog'lom, barkamol shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi [1].

#### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Monitoring mexanizmlarini to'g'ri tashkil etish jismoniy tayyorgarlik darajasi, maktablarning moddiy-texnika bazasi, o'qituvchilarning kasbiy salohiyati va o'quvchilar rivojlanishining kompleks bahosini aniqlash imkonini beradi. Bu jarayon nafaqat mavjud holatni tahlil qilish, balki strategik qarorlar ishlab chiqish, ta'lim dasturlarini takomillashtirish va amaliyotga tatbiq etishda ham muhim ahamiyatga ega (Fayziyev, 2019; Whitehead, 2013) [4].

O'zbekiston va xorijiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, jismoniy tarbiya mazmunini ilmiy asoslash borasida hali yetarli tadqiqotlar olib borilmagan. Xususan, o'quv dasturlaridagi o'zgarishlar ko'pincha ekspertlarning subyektiv fikrlariga tayangan bo'lib, bu yangilanishlarning barqaror emasligiga, mazmuniy nomuvofiqliklarga va metodik qarama-qarshiliklarga sabab bo'lmoqda (Hasanov, 2018). Mustaqillik yillarida chop etilgan jismoniy tarbiya dasturlari tahlili ham ushbu yo'nalishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarga asoslangan, ilmiy va eksperimental jihatdan sinovdan o'tgan konseptual modelning yetishmasligini ko'rsatadi (Norqulov, 2021) [5].

Tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, mavjud ilmiy ishlarda ko'pincha fargmentar tahlil ustun bo'lgan, ularning aksariyati metodologik asosdan xoli yoki konseptual yaxlitlikka ega emas. Buning natijasida jismoniy tarbiya mazmuni, davlat ta'lim standartlari va normativ-huquqiy asoslarni takomillashtirish bo'yicha samarali yechimlar ishlab chiqish imkoniyati cheklanib qolmoqda (Bailey, 2006). Shuningdek, xalqaro tajribani o'rganish ham ko'rsatadiki, rivojlangan davlatlarda jismoniy tarbiya monitoringi ta'lim sifatining ajralmas elementi hisoblanadi va o'quvchilarning jismoniy faolligi bo'yicha yillik hisobotlar asosida dasturlar muntazam yangilanadi (OECD, 2020).

Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston ta'lim tizimi uchun jismoniy tarbiya mazmunini ilmiy asoslash, uni zamonaviy monitoring tizimi bilan bog'lash pedagogik fan oldidagi eng dolzarb vazifalardan biridir. Amaldagi holat shuni ko'rsatadiki, maktablarda qo'llanilayotgan jismoniy tarbiya dasturlari ko'pincha fargmentar tadqiqotlar tahliliga tayangan, to'liq ilmiy-eksperimental sinovdan o'tmagan va jamiyatning zamonaviy talablariga hamda o'quvchi yoshlarning fiziologik imkoniyatlariga to'la javob bermaydi. SHu sababli, kompleks, ilmiy asoslangan va monitoringga tayanadigan yangicha yondashuvni ishlab chiqish zarurati kun tartibiga chiqmoqda.

#### NATIJALAR VA MUHOKAMA


Ilm-fan, texnologiya, jismoniy tarbiya nazariyasi va amaliyotining rivojlanishi, zamonaviy moddiy-texnika bazasi esa sohani yangilash va uning normativ mazmunini takomillashtirishni hayotiy zaruratga aylantirmoqda.

Hozirgi kunda jismoniy tarbiyaning zamonaviy o'quv dasturlarini ilmiy asoslash masalalari hali to'liq yoritilmagan va keng qamrovli tadqiqotlar kamdan-kam uchraydi. Ba'zi hollarda esa mavjud maqolalar tizimsiz tarzda chop etilgan. Shu munosabat bilan, **o'rta maktab yoshidagi o'quvchilar kontingentida jismoniy tarbiya holatini monitoring qilish** dolzarb ilmiy masala sifatida qiziqish uyg'otadi.

Monitoring tadqiqotlari doirasida **anketa usuli** orqali o'rta maktab yoshidagi o'quvchilarning jismoniy tarbiya asosiy darslari, shuningdek, kunlik maktab rejimidagi sport va sog'lomlashtirish tadbirlaridagi ta'lim mazmuni va metodikasiga ta'sir etuvchi omillar o'rganildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, mustaqillik yillarida maktab ta'lim tizimida **ijobiy o'zgarishlar** amalga oshirilmoqda, bu esa mamlakatda jismoniy tarbiya va bolalar sportini rivojlantirishga davlat tomonidan katta e'tibor qaratilayotganidan dalolat beradi [1, 5, 6].

Pedagogik tajriba doirasida o'tkazilgan so'rovda **27 nafar jismoniy tarbiya fan o'qituvchilari** ishtirok etdi. Tadqiqotning asosiy maqsadi o'rta maktab yoshidagi o'quvchilar bilan ishlovchi jismoniy tarbiya o'qituvchilarining **kasbiy malaka va sifat ko'rsatkichlarini** aniqlashdan iborat edi. Statistik tahlil natijalariga ko'ra, barcha respondentlar o'qituvchi sifatida **oliy ma'lumotli jismoniy tarbiya mutaxassislari** ekani aniqlangan. Ish staji bo'yicha taqsimot quyidagicha havola qildik.

Jismoniy tarbiya o'qituvchilarining ish staji taqsimoti



### 1-rasm. Jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy malaka va sifat ko'rsatkichlari


Shuningdek, maktablardagi **moddiy-texnika bazasini baholash** monitoring jarayonida katta ahamiyatga ega bo'ldi, chunki jismoniy tarbiya va sport-sog'lomlashtirish mashg'ulotlarining samaradorligi ko'pincha mavjud shart-sharoitlarga bog'liq. Tadqiqot natijalariga ko'ra, o'rganilgan maktablarning 58,5 %ida jismoniy tarbiya faoliyatini tashkil etish uchun **qoniqarli sharoitlar**, 16,1 % maktablarda **nisbatan yaxshi sharoitlar**, 25,4 % maktablarda esa **past moddiy-texnika bazasi** mavjudligi qayd etildi. Afsuski, hech bir maktabda sog'lomlashtirish tadbirlari uchun **to'liq sport inventari** mavjud emasligi aniqlangan.

O'rta maktab yoshidagi o'quvchilar qaysi turdagi harakat faoliyatini afzal ko'rishi bo'yicha so'rov natijalari shunday:

Jismoniy tarbiya o'qituvchilarining 39,6 %i futbol, volleybol, basketbol kabi sport o'yinlarini afzal ko'rishini bildirgan.

## PEDAGOGIKA

24,5 % ochiq havoda **milliy harakatli o'yinlarni** tanlagan.  
 35,9 % o'quvchilar **yengil atletika mashg'ulotlariga** qiziqish bildirgan.  
 Afsuski, gimnastika va suzish mashg'ulotlariga qiziqish kuzatilmagan.  
 O'quvchilar sevadigan harakat faoliyati turlari quyidagicha taqsimlandi:  
 Milliy harakatli o'yinlar — 28,4 %  
 Mustaqil tanlangan jismoniy faoliyat shakllari — 5,7 %  
 To'p bilan harakatli va sport o'yinlari — 39,6 %  
 Yugurish mashqlari — 18,6 %



Monitoring natijalari shuni ko'rsatdiki, o'rta maktab yoshidagi o'quvchilarning **jismoniy faoliyatga bo'lgan qiziqishi** turli-tuman bo'lib, ularning **individual xohishlari va qobiliyatlarini inobatga olgan holda ta'lim metodikasini** takomillashtirish zarur. Shu bilan birga, maktablarda **moddiy-texnika bazasini yaxshilash, jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy malakasini oshirish va monitoring tizimini joriy etish** bugungi kunning muhim ilmiy-amaliy vazifalaridan biridir.

Hozirgi kunda jismoniy tarbiya va sog'lom turmush tarzini targ'ib etish sohasidagi ilmiy tadqiqotlar maktab ta'lim tizimidagi amaliy faoliyat bilan yetarli darajada uyg'unlashmagani kuzatilmoqda. Afsuski, ko'plab umumta'lim muassasalarida o'quv jarayonida sog'lomlashtiruvchi va profilaktik yo'nalishdagi tadbirlar tizimli ravishda yo'lga qo'yilmagan. Jumladan, darslardan oldin o'tkaziladigan kunlik gigiyenik gimnastika mashqlari, dars paytida jismoniy faollikni ta'minlovchi "fizkultminutka"lar, katta tanaffuslarda milliy harakatli o'yinlar yoki sog'lomlashtiruvchi fleshmoblar amalda deyarli qo'llanilmayapti. Bu esa o'quvchilarning umumiy faolligi pasayishi, qomat nuqsonlari, sust harakat va jismoniy tayyorgarlikning yetarli darajada emasligi kabi salbiy oqibatlariga olib kelmoqda.

Mavjud vaziyat tahlili shuni ko'rsatadiki, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish bo'yicha olib borilayotgan ishlar ko'p hollarda epizodik xarakterga ega bo'lib, tizimli ravishda tashkil etilmagan. Bu holat maktab yoshidagi bolalar va o'smirlarning salomatligi hamda psixofiziologik holatiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, uzoq vaqt davomida statik holatda o'tirish, cheksiz axborot texnologiyalari ta'sirida faol harakatning cheklanishi, organizmning to'liq rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda.

Jismoniy tarbiya fani dasturining mazmun-mohiyatini tahlil qilish jarayonida murabbiy va o'qituvchilar fikrlari o'rganilganda, shunday xulosaga kelindiki, ularning 71,8 foizi amaldagi dastur belgilangan vazifalarga umuman mos keladi, deb hisoblaydi. Biroq, shu bilan birga, ko'pchilik mutaxassislar mazkur dasturni har yili qayta ko'rib chiqish, zamonaviy ilmiy yangiliklar, innovatsion pedagogik texnologiyalar va xalqaro tajribalar bilan boyitish zarurligini ta'kidlamoqdalar.

Shu bilan birga, tahlilda ishtirok etgan 16,4 foiz o'qituvchi jismoniy tayyorgarlik bo'yicha nazorat topshiriqlari o'quvchilarning real salohiyatiga mos kelmasligini bildirgan. Bu holat, ayniqsa,

yosh avlodning harbiy xizmatga tayyorgarlik darajasi nuqtai nazaridan dolzarb ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, 11,8 foiz mutaxassislar umumta'lim maktablarida moddiy-texnika bazaning yetishmasligi, sport jihozlari va zamonaviy inventarning kamligi, shuningdek, jismoniy tarbiya sohasidagi yosh kadrlarning nazariy va amaliy tayyorgarligi yetarli emasligini qayd etganlar.

Jismoniy tarbiya sohasidagi nazariy bilim va kasbiy kompetensiyalar tahlili shuni ko'rsatadiki, ayrim pedagoglar zamonaviy metodik yondashuvlar, innovatsion trening usullari va fiziologik nazorat vositalaridan foydalanish borasida yetarli malakaga ega emas. Bu esa olib borilayotgan mashg'ulotlarning samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli, jismoniy tarbiya o'qituvchilarining malakasini muntazam oshirib borish, ularni har yilgi attestatsiya jarayonlarida qayta tayyorlash kurslaridan o'tkazish muhim pedagogik vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda.

### XULOSA

Yuqoridagi holatlardan kelib chiqib, umumta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya tizimini takomillashtirish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

- Darsdan oldingi gigiyenik gimnastika va dars vaqtidagi "fizkultminutka"larni qayta joriy etish va ularni ilmiy asoslangan komplekslar orqali tizimli yo'lga qo'yish;
- Milliy harakatli o'yinlar, sport bayramlari, sog'lomlashtiruvchi marafonlar kabi tadbirlarni muntazam o'tkazish orqali bolalarning ijtimoiy-emotsional faolligini oshirish;
- Jismoniy tarbiya dasturlariga innovatsion pedagogik texnologiyalar va axborot tizimlarini integratsiya qilish;
- Murabbiy va o'qituvchilarning malakasini oshirish, ularni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga jalb etish;
- Moddiy-texnika bazani mustahkamlash, zamonaviy sport inventarlari bilan ta'minlash.

Xulosa qilib aytganda, jismoniy tarbiya tizimi faqatgina jismoniy mashqlar yig'indisi emas, balki insonning salomatligini muhofaza qilish, faol hayot tarzini shakllantirish va millat genofondini sog'lom saqlashga xizmat qiluvchi muhim ijtimoiy institut sifatida qaralishi lozim. Shu yo'nalishda amalga oshiriladigan ilmiy-amaliy tadqiqotlar sog'lom turmush tarzini jamiyatda targ'ib etishning samaradorligini oshiradi hamda maktab ta'lim tizimining barqaror rivojlanishiga zamin yaratadi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni PF-87. Yoshlar o'rtasida ommaviy sportni rivojlantirish va maktab o'quvchilarida jismoniy faollik ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida. Toshkent, 2022 yil, 12 aprel.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-392-sonli Qarori. Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida. Toshkent, 2024 yil, 15 noyabr.
3. Abdullaeva, D., & Karimov, S. (2021). Umumta'lim maktablarida jismoniy tarbiya tizimini takomillashtirishning zamonaviy yondashuvlari. *Pedagogika va Innovatsiyalar*, 5(2), 45-53.
4. **Fayziyev, A.** (2019). *Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi*. T.: O'qituvchi.
5. **Norqulov, S.** (2021). *Jismoniy tarbiya dasturlarini modernizatsiya qilishning ilmiy-metodik asoslari*. Samarqand: SamDU nashriyoti
6. Gapparov, R. (2019). Bolalarning jismoniy faolligini baholash va monitoring qilish metodikalari. *Jismoniy Tarbiya va Sport Ilmi*, 4(1), 12-21.
7. Hakimov, A. (2020). O'rta maktab yoshidagi o'quvchilarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish metodikasi. *Ta'lim va Rivojlanish*, 3(3), 34-42.
8. Jumanazarova, M., & Tursunov, I. (2022). Maktablarda jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy malakasini oshirish tizimi. *Ilmiy Pedagogika Jurnal*, 6(1), 58-66.
9. Кузнецова, О.В. (2018). Методика развития физической активности детей школьного возраста. *Вестник Педагогический Наука*, 12(4), 29-37.